

O`ZBEKISTONNING JAHON MAMLAKATLARI O`RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisod yo`nalishi 1-kurs talabasi

Yo`ldoshev Bahodir O`rozmamat o`g`li

Ungboyova Sevinch Kamoliddin qizi

Tel: +998912281225

+998975507580

Annotatsiya: O`zbekistonning jahon mamlakatlari o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi mavzusi buyicha O`zbekistonning boshqa davlatlar bilan tutgan iqtisodiy aloqalari Yevropa Ittifoqi va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi shartnomalariga kirgan davlatlar bilan tutgan iqtisodiy aloqalari haqida qisqacha malumotlar.

Kalit so`zlar; transport, xalqaro tashkilot, akkreditatsiya, konventsiya, mintaqa, integratsion, Yevropa Ittifoqi, memorandum, hamkorlik, bitim, savdo, investorlar, kapital, sanoat, eksport, import, kredit, tranzit.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo`lib, bu yerda mintaqa aholisining 45% yashaydi. O`zbekiston mintaqaning boshqa mamlakatlari (Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan umumiy chegaralarga ega bo`lgan yagona mamlakat, shuningdek u Yevropa bilan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi va hamda, Janubiy Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarini transport va telekommunikatsiya bo`yicha birlashtiruvchi muhim transport chorahasi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi jahonning 160 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (16,6 %), Rossiya Federatsiyasida (14,2 %), Qozog`istonda (7,5 %), Turkiyada (5,9 %), Koreya Respublikasida (4,8 %), Germaniya (2,9 %) va Qirg`iz Respublikasida (1,7 %) qayd etilgan.

O`zbekiston asosiy va muhim xalqaro konventsiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi. O`zbekiston jahon iqtisodiyotida turli darajadagi - global va mintaqaviy integratsion jarayonlarda qatnashish bilan bir paytda muhim tamoyilga, ya`ni bir davlat bilan yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish evaziga bo`lmasligi kerak degan tamoyilga amal qiladi. O`zbekistonning jahon hamjamiyati davlatlari bilan integratsiyasining tarkibiy qismi turli davlat va xalqaro tashkilotlar bilan ko`p tarmoqli aloqalarni o`rnatayotganligidir. Bu o`rinda Yevropa Ittifoqi (YeI) muhim o`rinni egallaydi.

O`zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o`rtasidagi hamkorlik 1992 yilning 15-aprelida O`zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi Qo`mitasi o`rtasidagi o`zaro hamkorlik to`g`risida Memorandumning imzolanishi bilan boshlandi. 1994 yilning 24 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Yevropa Ittifoqi qo`mitasining O`zbekistondagi texnik aloqalar hamkorligi bo`yicha byurosini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilindi. Bu tashkilotlarning maqsadi iqtisodiy islohotlar jarayoni va bozor munosabatlariga o`tishda texnik yordam ko`rsatish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi qo`mitasining harakatlarining hamkorligini kuchaytirishdan iborat edi.

O`zbekiston Respublikasi bilan Yevropa mamlakatlari o`rtasidagi ko`p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 1996 yilning 21 iyunidagi sammitda Yevropa Ittifoqiga a`zo davlatlarning rahbarlari bilan “O`zbekiston va Yevropa hamjamiyati hamda unga a`zo davlatlar o`rtasida hamkorlik va sheriklik” to`g`risida bitim imzolandi. O`zbekiston Sobiq Ittifoq davlatlari ichida Rossiyadan keyin bunday bitim imzolagan ikkinchi davlat bo`ldi. Xullas, “Sheriklik va hamkorlik” haqidagi bitim O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi a`zo davlatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarining huquqiy asosini tashkil qilgan bo`lib, ushbu bitim siyosiy, iqtisodiy, fan-texnikaviy va madaniy aloqalar uchun keng imkoniyat ochgan edi.

O`zbekistonda Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a`zo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 3180.2 mln. AQSH dollrmi tashkil etadi. Shundan eksport hajmi 923.3 mln. AQSH dollrni, import hajmi esa 2256.9 mln. AQSH dollrga yetdi.

Jahon iqtisodiyotida yirik siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo`lgan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri - AQSh bilan ko`p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish O`zbekiston uchun ustivor ahamiyatga ega. “O`zbekiston Respublikasi va AQSh o`rtasidagi strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to`g`risida Deklaratsiya” ikki mamlakat o`rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh kapitali ishtirokidagi investitsion loyihalar tog`-kon va neft-gaz komplekslari, agrosanoat kompleksi texnologik bazalari, oziq-ovqat sanoati va transport infratuzilmasini rivojlantirish kabi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida amalga oshiriladi.

Yaponiya O`zbekiston Respublikasini mustaqilligini 1991 yilning 28 dekabrda tan olgan yetakchi sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Ikki davlat o`rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yilning 26 yanvarida o`rnatildi. Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Yaponiyaga 1994 yilning may va 2002 yilning iyulida amalga oshirgan rasmiy tashriflari muhim rol o`ynadi. Tashriflar chog`ida O`zbek-Yapon davlatlararo munosabatlariga oid bir qator xujjatlar, jumladan “O`zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo`shma bayonoti”, “O`zbekiston Respublikasi hukumati

bilan Yaponiya hukumati o`rtasida imzolangan bitimlarga O`zbekistonning xuquqiy vorisligi haqida maktublar almashinuvi”, shuningdek, “O`zbekiston va Yaponiya o`rtasida do`stona, strategik sheriklik va hamkorlik to`g`risida qo`shma bayonot”lar imzolandi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlanib borishida 1994 yilda tuzilgan iqtisodiy hamkorlik bo`yicha O`zbek-Yapon va Yapon-O`zbek qo`mitalari muhim rol o`ynamoqda.

Respublikaga muntazam ravishda Yaponiyaning nufuzli parlament vakillari, ishbilarmon doiralari va siyosiy partiyalarning rahbarlari tashrif buyurmoqda. Mamlakatimiz eksport salohiyatini rivojlantirish uchun moliyaviy hamkorlik to`g`risida, neft-gaz va to`qimachilik sanoat tarmoqlarini, mineral xom-ashyo bazalarini rivojlantirish bo`yicha investitsion seminarlar, konferentsiyalar, prezentatsiyalarni tashkillashtirmoqda. Yaponiyaning iqtisodiyot, savdo va sanoat, hamda moliya vazirliklari bilan birgalikda doimiy ravishda moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish masalalari bo`yicha konsultativ yig`ilish va davra suhbatlari o`tkazilmoqda. O`zbekistonda Markaziy Osiyoda yagona bo`lgan xalqaro hamkorlik bo`yicha Yaponiya agentligi va tashqi savdo tashkilotlarining vakolatxonalarini ochildi. Toshkent shahrida esa O`zbek-Yapon markazi o`z faoliyatini olib bormoqda. Yapon bog`i ochilgan. Toshkentda hozirgi kunda Yaponiyalik investorlar ishtirokida tuzilgan 19 ta yirik Yapon kompaniyalar akkreditatsiya qilingan, 8ta qo`shma korxonalar ishlab turibdi. O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik rejalarini amalga oshirishda muhim rol o`ynovchi Yaponiyaning moliyaviy-iqtisodiy yordamiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O`z navbatida Yaponiya ham O`zbekistonga Markaziy Osiyodagi vaziyatga katta ta`sir ko`rsata oladigan mintaqaviy yirik davlat sifatida qaraydi. Hozirgi kunda ikki davlat o`rtasida savdo sohasida mumkin qadar qulaylik berish rejimi o`rnatilgan.

O`zbekiston va Yaponiyaning iqtisodiy hamkorligi keyingi yillarda barqaror rivojlanib bormoqda. O`tgan yillar davomida respublikaga keltirilgan moliyaviy vositalarning umumiy hajmi 1,563 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Xalqaro hamkorlik sohasida Yapon banki (JBIC) tijoriy kreditlari orqali respublikaning yoqilg`i-energetika va to`qimachilik komplekslarida umumiy summasi 721,1 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan 8 ta investitsion loyihalarni moliyalashtirdi. Bundan tashqari JBIC orqali “Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturi orqali O`zbekistonga telekommunikatsiya, transport infrastrukturasi, energetika va maorif sohalari bo`yicha umumiy summasi 721,7 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan 7ta loyihani amalga oshirish uchun imtiyozli shartlar bilan davlatning yena kreditlari berildi. Beg`araz va insonparvarlik yordamlari bo`yicha esa sog`liqni saqlash, maorif, transport va madaniyat sohaslariga umumiy summasi 130,83 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan resurslar Yaponiya tomonidan ajratildi.

1993-2003 yillarda Yaponiya hukumati O`zbekistondagi tashkilot va muassasalarda (iqtisodiyot, telekommunikatsiya, turizm, transport infratuzilmasini va boshqa sohalarda) ishlashi uchun 150dan ortiq ekspertlar jo`natdi. Bundan tashqari respublikaning turli vazirlik va muassasalaridan 500 ga yaqin mutaxassislar Yaponiyaning ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotni o`tab qaytishdi.

Xitoy Xalq Respublikasi bilan O`zbekiston o`rtasidagi o`zaro foydali hamkorlikning asosiy yo`nalishlari 1992 yil mart, 1994 yil oktyabr, 1999 yilning noyabrida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Xitoyga, shuningdek, 1994 yilda XXR Bosh Vaziri Li Penning, 1996 yilning iyulida XXR rahbari Tszyan Tszeminning O`zbekistonga rasmiy tashriflari chog`ida aniqlab olindi.

O`zbekistonning Xitoyga eksporti ortmoqda, biroq eksportning asosiy qismini hozircha strategik xom ashyo: tabiiy gaz, uran, mis, paxta va mineral o`g`itlar tashkil qilyapti. Ushbu tovarlar orasida eng muhim o`rinni tabiiy gaz egallaydi, **Tabiiy gaz bo`yicha 2011 yilda imzolangan ikki tomonlama oldi-sotdi shartnomaga ko`ra, XXRga uni yetkazib berish 25 yilga mo`ljallangan.**

O`tgan yil oktyabrida O`zbekistonda Xitoyning “Alibaba” savdo platformasini davlat ro`yxatidan o`tkazish soddalashtirilgan edi. O`zbekistonning **bir** qandolatchilik kompaniyasi ushbu platforma bilan birinchilardan bo`lib 3 million AQSh dollarilik eksport shartnomasini imzoladi.

Savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish maqsadida 2020 yil oktyabrida O`zbekiston Guanchjou shahrida bosh konsulligini ochdi. U O`zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi bunday shakldagi ikkinchi vakolatxonasidir, ilk vakolatxona Shanhay shahrida faoliyat ko`rsatmoqda. Tomonlar bosh konsullik ochilishi ikki mamlakat o`rtasidagi munosabatlar taraqqiyotiga qo`shimcha turtki berishini, O`zbekiston viloyatlari bilan Xitoyning janubiy viloyatlari o`rtasidagi tovar aylanmasi oshishini kutmoqda.

Xitoy O`zbekiston iqtisodiyotiga eng ko`p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokida 700dan ziyod kompaniya va korxonalar faoliyat ko`rsatmoqda. O`tgan yillar davomida Xitoylik sarmoyadorlar O`zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 7.8 milliard dollr miqdorida investitsiya kiritgan.

2016-yil yakunlari bo`yicha o`zaro savdo aylanma hajmi 4.2 milliard dollrni tashkil qildi. Xitoy bozorida O`zbekistonda ishlab chiqarilagan to`qimachilik mahsulotlari, plastmassa buyumlar, qishloq xo`jaligi va boshqa tovarlarga talab kata.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi XXR tashrifida hukumatlararo texnikaviy hamkorlik to`g`risidagi, xalqaro avtomobil qatnovi to`g`risidagi bitimlar, umumta`lim maktablarida ta`lim sifatini oshirish, sog`liqni

saqlash sohasini asbob-uskunalar bilan jihozlashga doir loyihalarni moliyalashtirish to`grisida hukumatlararo natolar almashinuvi hamda vaternaruya va o`simliklar inspeksiyasi karantini sohasida Anglashuv memorandum, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o`rtasidagi hamkorlikni rag`batlantirish bo`yicha Anglashuv mamorendumi, qishloq xo`jaligi sohasida 2018-2020-yillardaga mo`ljallangan idoralararo almashinuvi hamkorlik rejasi kabi qator muhim hujjatlar imzolandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil iyun, 1995 yil fevral, shuningdek, 1999 yilda Koreya Respublikasiga tashrif chog`ida 1994 yilning iyunida esa Koreya Respublikasi Prezidenti Kim En Sanning O`zbekistonga rasmiy tashriflari chog`ida mamlakatlar o`rtasida o`zaro savdo - iqtisodiy munosabatlarini rivojlanishi uchun huquqiy asos qo`yildi va hamkorlikning asosiy yo`nalishlari belgilab olindi. O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida “Savdo to`g`risida”, “Investitsiyalarni o`zaro himoyalash va kengaytirish to`g`risida” kabi bir qator savdo-iqtisodiy, investitsion va ilmiy-texnikaviy bitimlar imzolandi. Hozirgi kunda O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida huquqiy-shartnomaviy asosga ega bo`lgan 22 ta hukumatlararo shartnoma va hujjatlar imzolangan.

1996 yilning 19 iyulida Asaka shahrida “UzDEUAvto” qo`shma korxonasi avtomobil ishlab chiqarish zavodini prezentatsiyasi bo`lib o`tdi. 1992 yilning iyunida O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida imzolangan savdo shartnomasiga muvofiq savdo sohasida birmuncha qulayliklar yaratildi. 2002 yilda ikki davlat o`rtasida tovar ayirboshlash 326,0 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo`lib, uning 67,0 mln. AQSh dollari eksportga va 259,0 mln. AQSh dollari esa importga to`g`ri kelgan edi. Respublika eksportining asosiy qismini bu davrda paxta tolasi, xizmatlar, mato va kalava iplari tashkil etgan. 2003 yilning 9 oyi mobaynida ikki mamlakat o`rtasida tovar ayirboshlash 179,1 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo`lib, uning 39,1 mln. AQSh dollari eksportga, 140 mln. AQSh dollari esa importga to`g`ri kegan. 2007-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatimiz eksporti 1.4%, importi 9.0% tashkil etdi.

Hozirgi kunda Koreya Respublikasining eksport-import banki tomonidan O`zbekistonga taqdim etgan umumiy kreditlar hajmi 96,4 mln. AQSh dollariga yetdi. Ushbu mablag`lar hisobidan respublikada telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish loyihalari, “UzDEUAvto” qo`shma korxonasiga qator yangi modellar qo`shish, respublika kollejarini yangi o`quv jihozlari bilan ta`minlash, “O`zbek Ipagi” assotsiyatsiyasining ipak ishlab chiqarish korxonalarini texnik jihatdan qayta modernizatsiyalash ishlari bajarilmoqda.

O`zbekiston tashqi savdo aylanmasida ham Koreya Respublikasi yetakchi hamkorlardan biri sanalib, uning hissasi 7.3% ni tashkil etgan holda, hamkor mamlakatlar o`rtasida Rossiya (21.8%), Xitoy (17%) va Qozog`istonda (12.6%) keying 4-o`rinni egallaydi.

Ikki mamlakat o`rtasidagi iqtisodiy hamkorligning muhim yo`nalishlaridan biri – mehnat resurslari migratsiyasi va malakali kadrlar tayyorlash tizimidir. O`zbekiston va Janubiy Koreya o`rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomalar doirasida 2007-2016-yillar davomida Janubiy Koreya mehnat bozorida o`zbekistonliklarning ishtiroki 25.5 ming kishidan ortiqni tashkil etgani holda, 2016-yil holatiga 16.9 ming kishi Janubiy Koreyada ishlashni davom ettirganlar.

O`zbekiston Malayziya, Vetnam, Hindiston, Indoneziya, Turkiya, Fors ko`rfazi davlatlari kabi bir qator Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari bilan ham savdo iqtisodiy munosabatlarni olib bormoqda. O`zbekiston uchun o`tgan 10 – 15 yillar MDH davlatlari bilan ikki va ko`p tomonlama shartnomaviy munosabatlar doirasida teng va o`zaro foydali hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan darak bermoqda. Bunday hamkorliklar asosida nafaqat xududiy yaqinlik va iqtisodiy bog`liqliklar, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy – ma`naviy aloqalar, yirik tarixiy davrlar mobaynida xalqlarning umumiyligi yotadi.

Jahon iqtisodiyotida MDH davlatlari O`zbekistonning asosiy savdo – iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning hissasiga Respublika tashqi savdo hajmining 30%dan ortig`i to`g`ri keladi. O`zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashi asosan, tenglik va o`zaro foydali tamoyillarga asoslangan. MDH mamlakatlari ichida O`zbekistonning yirik savdo hamkorlari bo`lib, Rossiya Federatsiyasi, Qozog`iston va Ukraina hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining 30%i mintaqada davlatlariga to`g`ri keladi. 1999 yildan buyon mintaqada davlatlari o`rtasida tovar ayirboshlash tobora o`sb borayotganligini ko`rishimiz mumkin. Agar 1999 yilda mamlakatimizning mintaqada davlatlari bilan tovar ayirboshlashi 525 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo`lsa, 2002 yilga kelib u 568 mln. AQSh dollarini tashkil etgan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan bo`lgan o`zaro savdoda O`zbekiston asosan ijobiy saldogaga ega. 2002 yil natijalariga ko`ra tovar ayirboshlashning ko`proq qismi Qozog`istonga tegishli (263,3 mln AQSh dollari) bo`lib, uning boshqa davlatlar bilan, jumladan Tojikiston bilan 116,9 mln. AQSh dollarini, Qirg`iziston – 111,6 mln AQSh dollarini, Turkmaniston – 76,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart natijalariga ko`ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 37.1 foizni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 3 foizga kamaydi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga 1210.6 mln. AQSH dollrli qiymatidagi Tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 21 foizini tashkil etdi.

Umuman olganda mintaha mamlakatlari o`rtasidagi tovar ayirboshlash asosan xom-ashyo yoki oddiy sanoat yoki qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan xarakterlanadi. Bu esa ma`lum darajada savdo munosabatlari salohiyatini kamaytiradi. Hozirgi kunda O`zbekiston Markaziy Osiyo bozorida o`zining kimyoviy, to`qimachilik, elektrotexnika, aviatsiya, avtomobil, neft-kimy o sanoati va qishloq xo`jaligi mashinalari, qurilish materiallari mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo`yicha yuqori o`rinlardan birida turibdi. Bugungi kunda O`zbekiston Markaziy Osiyo koridorida, o`z eksport va import hamda tranzit yuklarni tashish uchun 10 ta transport yo`laklaridan keng foydalanmoqda. Qo`shimcha yangi xalqaro transport va tranzit koridorini tashkil etish chora-tadbirlarini ham ko`rib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. “Xorijiy investitsiyalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni 30.04.1998
2. “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni 25.04.1996
3. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo`lida T. O`zbekiston,. 1996
4. Karimov I.A. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” T. O`zbekiston,. 1999
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T.: “O`zbekiston”, 2005.
6. Nazarova G.G`. Xaydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (o`quv qo`llanma). T., TDIU, 2005.
7. Nazarova G.G`. , Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. “Jahon iqtisodiyoti” (O`quv qo`llanma). T., 2005.
8. <http://www.bilimdon.uz>.
<http://market.yandex.ru.catalog.xml>.